



ALFRAGANUS UNIVERSITETI
**IJTIMOIIY FANLAR
FAKULTETI**

**FALSAFA VA INSONIYAT:
O'TMISH, HÖZIRGI ZAMON,
KELAJAK | RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**

**TOSHKENT 2025-YIL
21-NOYABR**



/alfraganus_university

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ALFRAGANUS UNIVERSITIY
NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASASI**

**“JAHON FALSAFA KUNI” MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN
“FALSAFA VA INSONIYAT: O‘TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK”
MAVZUSIDA
Respublika konferensiya materiallari to‘plami
2-qism**

Toshkent-2025

**“JAHON FALSAFA KUNI” MUNOSABATI BILAN O‘TKAZILGAN
“FALSAFA VA INSONIYAT: O‘TMISH, HOZIRGI ZAMON, KELAJAK”.**

Ilmiy maqolalar to‘plami. Toshkent: Alfraganus universiteti. 2-qism. 2025. 761 b.

Ushbu ilmiy maqolalar to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda 490-sonli buyrug‘ida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida 2025-yil 21-noyabr kuni **“Jahon falsafa kuni” munosabati bilan o‘tkazilgan “Falsafa va insoniyat: o‘tmish, hozirgi zamon, kelajak”**. mavzusida respublika konferensiya materiallari asosida tuzilgan.

Mas’ul muharrirlar:

fal.f.f.d., dots. Sherdor Po‘latov

fal.f.f.d., prof. Dildora Po‘latova

fal.f.f.d., prof. Gulnoz Ruzmatova

Nashrga tayyorlovchilar:

fal.f.f.d., dots.v.b. Mamanov Jamoliddin

fal.f.f.d., dots.v.b. Bahodir Musametov

fal.f.f.d., dots.v.b. Dilshodbek Uralov

fal.f.f.d., dots. Muhriddin Sherboboyev

katta o‘qituvchi. Erkin Hamdamov

Taqrizchilar:

falsafa fanlari doktori, professor G.K. Masharipova

falsafa fanlari doktori, professor J.S.Ramatov

© Alfraganus universiteti, 2025.

GLOBAL AXBOROT MAKONIDA YOSHLAR: MILLIY MA'NAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH STRATEGIYALARI

Qurbonov Sherzodjon Shuxratovich,

sherzodjonurbonov@gmail.com

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Ushbu maqola global axborot makonining yoshlar ongiga ta'siri va milliy ma'naviy immunitetni shakllantirish strategiyalarini falsafiy yondashuvda tahlil qiladi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining intensivligi, simulyakrlar va ijtimoiy tarmoqlardagi emotsional kontentlar yoshlarning identitetiga va axloqiy qadriyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Muallif milliy ma'naviy immunitet tushunchasini axboriy-axloqiy himoya mexanizmi sifatida ko'rib chiqib, uning mustahkamlanishi uchun media savodxonlik, milliy qadriyatlarni raqamli maydonda targ'ib qilish, estetik va semiotik tahlil yondashuvlarini qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlari: Global axborot makoni, milliy ma'naviy immunitet, axboriy tahdidlar, identitet shakllanishi, simulyakrlik, raqamli madaniyat, ma'naviy barqarorlik, falsafiy yondashuv.

Аннотация: Данная статья анализирует влияние глобального информационного пространства на сознание молодежи и стратегии формирования национального духовного иммунитета с философской точки зрения. Интенсивность информационно-коммуникационных средств, симулякры и эмоциональный контент в социальных сетях оказывают негативное влияние на идентичность и моральные ценности молодежи. Автор рассматривает понятие национального духовного иммунитета как механизм информационно-нравственной защиты, подчеркивая необходимость его укрепления посредством медиаграмотности, продвижения национальных ценностей в цифровом пространстве, а также применения эстетического и семиотического анализа.

Annotation: This article analyzes, from a philosophical perspective, the impact of the global information space on the consciousness of youth and the strategies for developing national spiritual immunity. The intensity of information and communication technologies, the prevalence of simulacra, and the emotionally charged content on social media negatively affect young people's identity and moral values. The author conceptualizes national spiritual immunity as a mechanism of informational and moral protection, emphasizing the need to strengthen it through media literacy, the promotion of national values in the digital sphere, and the application of aesthetic and semiotic analytical approaches.

Keywords: Global information space, national spiritual immunity, informational threats, identity formation, simulacra, digital culture, spiritual resilience, philosophical approach.

Bugungi raqamli zamon — inson ongi va qalbining eng nozik qatlamlariga bevosita yetib boruvchi kuchlar jamlanmasidir. Bu kuchlar nafaqat tafakkurni, balki irodani, e'tiqodni, qadriyatni ham shakllantiruvchi vositalar bo'lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, video kontentlar, vizual ifodalar va matnli postlar shaklida namoyon bo'layotgan bu oqimlar, ayniqsa, yoshlar ongida mavjud bo'lgan axborot bo'shliqlarini to'ldiribgina qolmay, ularni ideologik jihatdan egallamoqda. Bunday sharoitda ma'naviy jarayonlar o'zining klassik shaklidan voz kechmoqda; u zamonaviy texnologik shakllar bilan uzviylashib, yangi, kiber-ma'naviy identitetlarni shakllantirish bosqichiga o'tmoqda. Bu jarayon mohiyatiga nazar tashlansa, avvalo, "axborot-mafkuraviy jarayonlar"ning intensivligi va oqibatlarini tahlil qilish zarur bo'ladi. I.Suvanov bu borada shunday deydi: "Axborot-kommunikatsiya vositalari takomillashayotgan sharoitda mafkuraviy ta'sir ko'rsatish jarayoni tezkor va shiddatli tus olib, yolg'onni haqiqatga o'xshatish, kichik muammodan katta yolg'on yasash kabi usullar qo'llanilmoqda"[1.5.]. Demak, raqamli maydon endilikda haqiqat mezoni emas, balki tasavvuriy haqiqatlar konstruksiyasiga aylangan. Ushbu konstruksiya o'z navbatida yosh ongida yangi turdagi gnoseologik g'ovlik — "shubhali bilim" sindromini yuzaga keltirmoqda.

Virtual tasvirlar vositasida ifodalangan "muvaffaqiyat", "go'zallik", "erkinlik" kabi tushunchalar ko'pincha simulyakrlarga asoslangan bo'lib, ular real ijtimoiy hayotdan yiroq, lekin hissiy-axboriy jihatdan kuchliroq ta'sir kuchiga ega. Shu bois, X.Nomozov o'z izlanishlarida quyidagicha fikr bildiradi: "Internet resurslar shaxs ijtimoiylashuvi jarayoniga ham ijobiy va ayrim hollarda ham negativ ijtimoiylashuvni harakatga keltiruvchi manba sifatida namoyon bo'lmoqda"[2.5.]. Bu degani, har qanday kontent, jumladan estetikaga asoslangan video yoki oddiy status ham, yoshlarning ichki dunyosida ijtimoiy rolni anglash mexanizmini yo'naltiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Axborot jamiyatidagi shiddatli o'zgarishlar, ayniqsa, global axborot makonidagi manipulyativ algoritmlar, nafaqat tashqi ta'sirlar sifatida, balki yosh avlod ichki identitetining qurilishiga doir omil sifatida e'tirof etilmoqda. B.Kuyliyev bu holatni "jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning ma'naviy-siyosiy texnologiyalari" sifatida izohlar ekan, shunday yozadi: "Sotsial media orqali bir vaqtning o'zida millionlab onglar yo'naltirilmoqda, bu esa milliy ijtimoiy ong strukturasining izdan chiqishiga sabab bo'lmoqda" [3.5.]. Haqiqatdan ham, virtual maydon endilikda estetik va axloqiy haqiqatlarning "qayta kodlash" laboratoriyasiga aylangan. Bu holatda yosh ongida real va virtual hayot o'rtasidagi chegara tobora

noaniq holat kasb etmoqda. Axborotning cheksiz oqimi, uning estetik jihatdan puxta ishlangani, simvolik yuklamalari, subkultural til orqali kodlangan mazmunlar — bularning barchasi yoshlarning aksiofaktual dunyoqarashiga bevosita ta'sir etadi. Jamol Jurakulov bu haqida shunday deydi: “Axborot — bu faqat kommunikatsiya emas, balki inson tafakkurini, dunyoni idrok etish sistemalarini tubdan o'zgartiruvchi kuchdir”[4.5.].

Bugungi ijtimoiy makonda “eshitish”dan “ko'rish”ga, “o'ylash”dan “bosish”ga asoslangan tafakkur modeli shakllanmoqda. Bu tafakkur tezkorlikni, yuzaki bahoni va hissiy reaktivlikni afzal biladi. Ushbu intellektual paradigma Eshbekov Bahodirning fikricha “yoshlarni chuqur tahlildan yiroqlashtirib, faqat ijtimoiy emotsiyaga asoslangan harakatlarga undaydi”[5.3.]. Demak, ijtimoiy tarmoqlar yoshlarda fikr emas, holat uyg'otadi; bu esa chuqur ma'naviy ong emas, vaqtinchalik axboriy ta'sirga asoslangan ong holatini shakllantiradi. O'zbekiston kontekstida bu muammo alohida dolzarblik kasb etadi. Chunki, milliy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy xotira va axloqiy normalar xorijiy kontentlarning kuchli bosimi ostida qolmoqda. Shu sababli, Lutfullayev A. bu holatni “global axborot makonida ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashish zaruriyati” deb baholaydi va “milliy axboriy-axloqiy immunitet”ni shakllantirishga chaqiradi[6.5.].

Bugungi yosh ongining shakllanishida ijtimoiy tarmoqlar va virtual kontentlar tasodifiy emas, balki tizimli, algoritmik va strategik vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu vositalar ma'naviy jarayonlarni inson ichki olamidan chiqarib, uni algoritmik muhitga yuklamoqda. Shunday ekan, zamonaviy texnologiyalar davrida yoshlarning ma'naviy immunitetini shakllantirish uchun nafaqat ma'rifiy, balki texnologik, estetik va semiotik yondashuvlar ham zarur. Yangi avlodni ijtimoiy tarmoqlar vositasida ongiy ekspluatatsiyadan asrash — bu bugungi jamiyatning strategik ma'naviy vazifasidir.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makon yoshlar ongiga ta'sir etuvchi eng muhim ma'naviy-axboriy maydonga aylangan bir davrda, xabar, tasvir va videomateriallar oddiy kommunikatsiya vositasi emas, balki ongni shakllantirish va qadriyatlarni qayta kodlashning murakkab texnologiyasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Sh. Turkle ta'kidlaganidek, “raqamli muhitda odamlar o'zlarini ko'p qirrali shaxslar sifatida taqdim etishadi va bu, ayniqsa, yoshlar ongida identitetning beqaror shakllarini yaratadi”[7.182.]. Ushbu fikr shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy tarmoqlardagi ko'rinishlar va obrazlar shaxsiy xatti-harakatlardan ko'ra ko'proq psixologik reallikka aylangan. Bunday sharoitda ma'naviy jarayonlar tobora vizual va emotsional unsurlarga tayanmoqda, bu esa yoshlar dunyoqarashini manipulyativ ta'sirga ochiq qiladi.

M. Castells o'zining “axborot jamiyati” haqidagi asarida “ijtimoiy tarmoqlar shaxsiy identitet va kollektiv ongning shakllanishida global miqyosdagi qudratga

ega bo'lgan yangi kommunikatsiya tuzilmasini yuzaga keltirdi" deb yozadi[8.121.]. Bu nuqtai nazar dolzarbdir, chunki yoshlarning ongiga singdirilayotgan turli xabarlar va videolar nafaqat individual darajada, balki global madaniy diskurslar orqali ham ijtimoiy identifikatsiyani o'zgartiradi. Natijada, virtual makon ma'naviy tarbiya jarayonida ham raqobatchi, ham alternativ platformaga aylanadi. Bu holatni nazardan qochirmaslik kerak, chunki yoshlar ko'pincha an'anaviy ma'naviy institutlardan ko'ra ko'proq vaqtini onlayn axborot oqimlarida o'tkazmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonda tarqalayotgan xabar, tasvir hamda video materiallar yoshlar ongiga bevosita psixologik va ma'naviy ta'sir ko'rsatadigan ko'rinmas kuch sifatida namoyon bo'lmoqda. Z.Bauman bu jarayonni "suyuq modernlik" konsepsiyasi orqali izohlar ekan, "zamonaviy insonning dunyoqarashi barqaror ma'naviy tayanchlardan ko'ra oqimlardagi tasodifiy obrazlar va tez almashinuvchi xabarlar ta'sirida shakllanadi" deya ta'kidlaydi[9.128.]. Bu fikr yoshlarning ongini himoyasiz qoldiruvchi asosiy sabablarni ko'rsatadi: ular o'z e'tiqodi va qadriyatlarini barqaror asoslarda emas, balki virtual maydonning dinamik oqimida izlashadi. Bu esa ma'naviy jarayonlarni barqarorlashtirish texnologiyalariga yangi talablarni qo'ymoqda.

J. Baudrillard esa bu jarayonni yanada keskinroq baholaydi. U "simulyakra va simulyatsiya" asarida "medialashgan tasvirlar reallikni emas, balki reallik illyuziyasini takror-takror ishlab chiqaradi" deya yozadi[10.11.]. Bu fikr yoshlarning virtual makondagi faoliyatiga ham to'la tegishli, chunki ular ko'pincha voqelikning o'zini emas, balki uning axborot texnologiyalari orqali yaratilgan modellashtirilgan nusxasini qabul qiladilar. Natijada, ma'naviy qarashlar sun'iy kontekstlarda shakllanib, yoshlarni real ijtimoiy qadriyatlardan uzoqlashtiradi. Bu xavfli jarayonni oldini olish uchun ma'naviy texnologiyalarni ongli ravishda ishlab chiqish, yoshlarning tanqidiy fikrlash va media savodxonlik darajasini oshirish zarur.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonning yoshlar ongiga singdirayotgan turli xabar, tasvir va videomateriallarining ta'siri ma'naviy jarayonlar va texnologiyalar kontekstida o'ziga xos paradoksni yuzaga chiqaradi: ular bir tomondan global muloqot, tezkor axborot va ijodiy ifoda imkoniyatlarini kengaytirsam, boshqa tomondan, ongni manipulyatsiya qilish, qadriyatlarni buzish va iste'molchilik xohishlarini kuchaytiruvchi vositaga aylanadi. M. Castells bu jarayonni "axborot jamiyatining tarmoqli strukturalari" orqali tahlil qilib, "virtual maydonda tarqaladigan xabarlar ijtimoiy ongni qayta ishlab chiqaruvchi qudratli kuchga aylanadi" deya yozadi[11.21.]. Bu fikrga ko'ra, yoshlar ongiga singdirilayotgan turli materiallar shunchaki axborot oqimi emas, balki ularning dunyoqarashi, ijtimoiy munosabatlari va ma'naviy yo'nalishlarini belgilab beruvchi konstruktiv mexanizmdir. Shu nuqtada, ma'naviy jarayonlarning zaiflashuvi va manipulyativ

texnologiyalarga nisbatan himoyasizlik radikal g'oyalarga ochiq maydon yaratishi mumkinligini alohida qayd etish zarur.

S. Turkle esa ijtimoiy tarmoqlarda yuzaga kelayotgan o'zaro aloqalarni "yolg'izlikni baham ko'rish" fenomeni sifatida baholaydi va "virtual muloqot real muloqotni almashtirgan sari insonning ichki dunyosi yanada bo'shashadi" deya qayd etadi[12.154.]. Uning nazariyasi yoshlarning ongida axborotning haddan tashqari ko'pligi, lekin ma'naviy-axloqiy jihatdan mazmunsizligi oqibatida vujudga keladigan ichki bo'shliqni ko'rsatadi. Bu bo'shliq esa radikal yoki manipulyativ g'oyalarning ongga tezroq singib ketishiga imkon beradi. Shunday ekan, Turkle ta'kidlaganidek, texnologik muloqot vositalaridan foydalanish jarayonida ma'naviy jarayonlarni mustahkamlash va yoshlarni ichki barqarorlikka o'rgatish strategik vazifa hisoblanadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonda tarqalayotgan xabarlar, tasvirlar va videomateriallar yoshlar ongining ma'naviy-axloqiy yo'nalishlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lib, ular ko'pincha bevosita emas, balki ong osti darajasida ta'sir ko'rsatadi. P.Virilio "axborotning tezligi ijtimoiy ongga qaratilgan kuchning yangi shakli" ekanligini ta'kidlab, virtual makonning inson idroki ustidan hukmronligini "tezkor tasvirlarning ongda barqaror muhrlanishi" orqali izohlaydi[13.69.]. Bu holat shuni anglatadiki, ijtimoiy tarmoqlarda ko'rinishi oddiy bo'lgan vizual oqim aslida yoshlarning qadriyatlarini shakllantirishda chuqur ma'naviy oqibatlarga olib kelmoqda. Shunday qilib, Virilioning g'oyasi bugungi yoshlar ongida vizual materiallarning haddan tashqari ko'pligi ularni estetik idrokdan mahrum qilib, ma'naviy ongni manipulyatsiyaga ochiq qilib qo'yishini anglatadi.

M.Baudrillard esa "simulyakrlar" nazariyasida "tasvir endi haqiqatning in'ikosi emas, balki uni almashtiruvchi va yo'q qiluvchi belgi" deya ta'kidlaydi[14.6.]. Virtual makondagi video va xabarlarining ko'pligi, ularning manipulyativ qayta ishlanishi natijasida yoshlar ko'pincha real voqelikni emas, balki "yaratilgan haqiqatni" qabul qiladilar. Bu jarayon, albatta, ma'naviy jarayonlarga bevosita ta'sir qilib, qadriyatlar iyerarxiyasini sun'iy asoslar bilan almashtiradi. Shu bois Baudrillardning fikrini yoshlar kontekstida baholaganda, "haqiqat" va "tasvir" o'rtasidagi chegaraning yo'qolishi ularning ongini tanqidiy fikrlashdan mahrum qiladi va ongni tashqi kuchlar tomonidan shakllantirish imkonini kuchaytiradi.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual makonda yoshlar ongiga singdirilayotgan xabar, tasvir va video materiallar bugungi kunda ma'naviy jarayonlarning eng sezgir qatlamiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan murakkab texnologik vositalar sifatida namoyon bo'lmoqda. G. Debord "tomosha jamiyati" nazariyasida shunday deydi: "tomosha – bu mavjud bo'lgan narsaning tasviri emas, balki odamlar orasidagi

munosabatlarning tasvir orqali vositalashuviga aylangan yangi ijtimoiy munosabatdir”[15.2.]. Ushbu fikr ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida shakllanayotgan ma’naviy-axloqiy muhitni izohlashda dolzarb bo‘lib, yoshlar o‘zaro muloqotining bevosita emas, balki tasvirlar, “story”lar va qisqa videolar orqali vositalashuvi ularning ongini turli ramziy manipulyatsiyalarga ochib qo‘ymoqda. Demak, Debordning g‘oyasi yoshlar ongida real ijtimoiy tajribalar o‘rniga virtual tasviriy oqimlar hukmron bo‘lishi, buning natijasida esa ma’naviy qarashlar sun’iy shakllanishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Global axborot makonida yoshlar ongining shakllanishi — zamonaviy jamiyatning asosiy strategik muammolaridan biridir. Raqamli axborot oqimlari yosh ongida beqaror identitetlar, simulyakr haqiqatlar va emotsional tafakkur modelini shakllantirmoqda. Bunday sharoitda milliy ma’naviy immunitetni shakllantirish — bu nafaqat mafkuraviy, balki **falsafiy, estetik va texnologik strategiya** bo‘lishi kerak. Yoshlarni axborot manipulyatsiyasidan asrash uchun ularni o‘zligini anglashga, tanqidiy tafakkurga va milliy qadriyatlarga sodiq bo‘lishga o‘rgatish — bugungi jamiyat oldidagi eng muhim ma’naviy vazifadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Suvanov I. Axborot-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashishning innovatsion texnologiyalari. – Toshkent: 2024. – B. 5.
2. Nomozov X. Internet-makonning shaxs ijtimoiylashuviga ta’siri. – Buxoro: 2024. – B. 5.
3. Kuyliyev B. Global axborot makonida jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilishning ma’naviy-siyosiy texnologiyalari. – Toshkent: 2025. – B. 5.
4. Jurakulov J. Axborotlashgan jamiyatda inson ma’naviy borlig‘ining ijtimoiy-madaniy transformatsiyasi. – Toshkent: 2023. – B. 5.
5. Eshbekov B. Jamiyatda ijtimoiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirishda OAVning roli. – Samarqand: 2023. – B. 3.
6. Lutfullayev A. Xalqaro yagona axborot maydonining kengayishi sharoitida ma’naviy tahdidlarga qarshi kurashish. – Buxoro: 2023. – B. 5.
7. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books. – B. 182.
8. Castells, M. Communication Power. – Oxford: Oxford University Press. – B. 121.
9. Bauman, Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press. – B. 128.
10. Baudrillard, J. Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press. – B. 11.

11. Castells, M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell. – B. 21.
12. Turkle, S. Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. – New York: Basic Books. – B. 154.
13. Virilio, P. Open Sky. – London: Verso. – B. 69.
14. Baudrillard, J. Simulacra and Simulation. – Ann Arbor: University of Michigan Press. – B. 6.
15. Debord, G. The Society of the Spectacle. – New York: Zone Books. – B. 12.

CONTENT / СОДЕРЖАНИЕ / MUNDARIJA

1-SHO‘BA. INSONIYATNING GLOBAL MUAMMOLARI VA ZAMONAVIY FALSAFIY TADQIQOTLAR.		
Akmalxonov S. //	The dynamics of globalization in contemporary english literary discourse	4
Qurbonov Sh. //	Global axborot makonida yoshlar: milliy ma’naviy immunitetni shakllantirish strategiyalari	7
Khabibullaev Sh. //	Some elements of Zoroastrianism preserved in the life of the people of Central Asia	14
Sharobiddinova Sh., Tursunova L.//	Yoshlar estetik tafakkurini rivojlantirishda musiqaning o‘rni	18
Inagamova F.//	Yangi O‘zbekistonda sodir bo‘layotgan “qadriyatlar transformatsiyasi va qadriyatlarning umumiy rivojlanish qonuniyati	23
Xolbekova S. //	Texnologik taraqqiyot va inson mohiyatining qayta talqini	27
Ro‘ziyeva Z. //	Global o‘zgarishlar davrida inson mohiyatining falsafiy talqini	30
Ismoilov B. //	Globallashuv sharoitida diniy ekstremizmga qarshi ta’lim tizimining profilaktik roli	34
Xayitov Q.//	Globallashuv jarayonida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishning psixologik omillari	41
Tillabayev B. //	Insoniyatning global muammolari va zamonaviy falsafiy tadqiqotlar	46
Abdulfaizova D. //	“Iqtisodiy zo‘ravonlikning ijtimoiy-falsafiy mohiyati va uning inson erkinligiga ta’siri”	52
Nabiyev M //	Jamiyatda istemol madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy mezonlari	56
Qutliyev Sh., Pozilov A.//	Urushlarning insoniyatga va atrof-muhitga ta’siri.	62
Sodiqkhujayeva Sh. //	Global challenges of humanity and contemporary philosophical research	66
Elmurodova N.//	Globallashuv va til o‘zgarishlari: madaniyatlararo	70